

# МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHDAGI BOLALARНИ RIVOJLANISH SOHASINI ANIQLASH USULLARI TAKOMILLASHTIRISH

Z.J.Bozorboyeva

UrDPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalarini aniqlash usullari toboro muhim bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada yosh avlodlarning rivojlanganlik darajasini aniqlash usullari to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Rivojlanish, soha, intiluvchanlik, qobiliyat, kreativlik, metodlar, shaxs, tarbiya.

Rivojlanish-shaxslarning sifat ko'rsatkichlarining ortib borishidir, ya'ni har bir shaxs dunyoga kelar ekan, shu kundan boshlab bu individda rivojlanish jarayonlari boshlanadi. Shuningdek, individ rivojlanib borar ekan, unga har tamonlama ta'lim-tarbiya berib borilishi zarur. Chunki har qanday kuchli shaxs dastlab kuchli ta'lim-tarbiya olgan bo'lishi kerak. Yosh avlod tug'ilganidan to yetti yoshgacha ta'lim-tarbiya olib, rivojlanish jarayonida ortib boradi. Rivojlanish shunday bir jarayonki, bu jarayonda dastlab birinchi qadamni qo'yish eng muhim bo'lgan hodisa hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda beshta rivojlanish sohasi mavjud bo'ladigan bo'ls, bularning barini bitta avlodda shakllantirish qiyin masala. Shuning uchun har bir bolaning rivojlanish sohalaridan qaysi biri yetarli darajada shakllangan, qaysi biri sohada orqada qolayotganligini aniqlab olish uchun turli xil usullar ishlab chiqarishini takomillashtirish zarur. Har bir rivojlanish sohasining o'ziga xos bo'lgan kichik sohalarini bolada rivojlantirgan holda tarbiyachi o'z qobiliyatidan samarali foydalana olishi ham turlicha usullar o'ylab topishi mumkin. Tarbiyachi ta'lim-tarbiya jarayonida qatnashar ekan, o'ziga yarasha qiyinchiliklarga ham tayyor bo'lishi lozim. Chunki yosh avlod maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish jarayonini saqlab tura

olmasa bolalar hayoti davomida turli xil qiyinchiliklardan o‘ta olmasdan tengdoshlaridan orqada qolishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotida har bir bola uchun sog‘lom muhit yaratib berish eng muhim vazifalardan biridir. Sog‘lom muhit rivojlangan va rivojlanmoqchi bo‘lgan shaxsning foydasini ko‘zlagan holda bo‘lishi kerak. Masalan: Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasini rivojlantirish uchun bolalarga turli xil mashqlar bajartirish yoki sanitariya gigiyena qoidalarini o‘rgatish usulidan foydalanishi mumkin. Ijtimoiy xissiy rivojlanishni maromida bo‘lishi uchun bolajonlarga psixologik tarafdan yondashish usullaridan foydalanish mumkin. Bu orqali bolalarda hissiy ruhiy barkamollik, fikrni erkin bayon etish kabi qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin.

Nutq, muloqot, o‘qish, yozish malakalari sohasi orqali bolajonlarning nutqini shakllantirish, ilmga bo‘lgan qiziqish uyg‘otishimiz mumkin.

Bilish jarayonining rivojlanishida bolalarni aqlini charxlovchi, mantiqiy, xotirani kuchaytirish uchun alohida takomillashgan usullardan foydalanib mashg‘ulot olib borlishi mumkin.

Ijodiy rivojlanish sohasida ko‘proq bolajonlarning o‘zida bor bo‘lgan hali hamma bilmagan qobiliyatlarini rivojlantiruvchi usullardan foydalanib mashg‘ulot olib borilishi mumkin.

Rivojlanish har bir shaxsga xos bo‘lgan jarayondir. Lekin hamma ham o‘zining qobiliyatlarini o‘zgalar oldida namoyon qila olmasligi sababli o‘zining rivojlanishini o‘zi to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Agar insonning yonida uning rivojlanishini, ko‘zlagan natijasiga erishishiga ishonishini aytib turuvchi, doim unga dalda berib turuvchi shaxs bo‘lsa bu inson albatta mukammal insonlar qatorida bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intelektual, ma’naviy-axloqiy etik estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy ta’limga tayyorlashga qaratilgan. Shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompitensiyalarni shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

Bolaning rivojlanish sohalari kompitensiyalarini shakllantirishda amalga oshiriladigan vazifalarining huquqiy asosi sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bolaning rivojlanish sohasi kompitensoiyalarinign shakllanishi haqida aytib o'tilgan.

Xulosa qilib aytganda, bolaning rivojlanish sohalari kompitensiyalarini ilmiy nuqtai nazardan o'rghanish, uning ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish va bu borada yangiliklarni joriy etish davr talabi hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil 16-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag'i "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori